

## O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish muammolari va ularni bartaraf etish

**Abdulazizova Mubinaxon Avazbek qizi**

*Andijon davlat chet tillari instituti Roman-german va slavyan tillari fakulteti Nemis  
tili ta ‘lim yo ‘nalishi 303-guruh talabasi*

**Isamutdinova Durdona Maripfjanovna**

*Ilmiy maslahatchi:*

### ARTICLE INFO

#### ARTICLE HISTORY:

Received: 10.04.2025

Revised: 11.04.2025

Accepted: 13.04.2025

#### KEYWORDS:

*chet tillarni o‘qitish,  
O‘zbekistonda ta’lim, til  
muhiti, interaktiv  
metodlar, kommunikativ  
yondashuv, o‘quv  
dasturlari, baholash  
tizimi, CLIL metodikasi,  
pedagogik  
innovatsiyalar.*

### ABSTRACT:

*Mazkur maqolada O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish bilan bog‘liq dolzarb muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. O‘quv dasturlari va metodikalar bo‘yicha mavjud muammolar, shuningdek, chet tili o‘rganish jarayonida til muhitining yetishmovchiligi va uni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Muammolarni bartaraf etish uchun interaktiv metodlarni joriy etish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish hamda tabiiy til muhitini yaratish muhimligi ta’kidlanadi.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Chet tili bilish xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ilm-fan va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish, zamonaviy kasblarni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta’lim muassasalarida chet tillarni samarali o‘qitish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida turli muammolar mavjud. Ushbu maqolada O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitishdagi asosiy muammolar va ularning mumkin bo‘lgan yechimlari tahlil qilinadi.

Chet tili o‘qitishdagi asosiy muammolar

An’anaviy ta’lim usullarining eskirganligi

Ko‘pgina ta’lim muassasalarida chet tili an’anaviy usullar bilan o‘qitiladi. O‘quvchilar asosan grammatik qoidalarni yodlash (GUM) va tarjima qilish orqali tilni o‘rganadilar, bu esa amaliy qo‘llashda qiyinchilik tug‘diradi.

Amaliy suhbat (sprechen) va eshitish (horen) ko‘nikmalarining yetishmasligi

Dars jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha nazariy bilimlarga e’tibor qaratishadi, amaliy suhbat esa e’tibordan chetda qoladi. Natijada, ular chet tilida so‘zlashish va tushunishda qiyonaladilar.

Chet tilini o‘qitish uchun zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi va faqatgina eski metodlarni qo‘llanilishi natijasi o‘quvchilarning amalda qo‘llay olish qobiliyati sustlay boshlaydi va keyinchalik ta’sir ko’rsatishi ham mumkin.

Axborot texnologiyalari rivojlangan zamonda internet, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va boshqa zamonaviy vositalar chet tilini o‘rganish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq, ko‘plab ta’lim muassasalarida bu resurslardan to‘liq foydalanilmaydi.

Tajribali va zamonaviy metodikaga ega o‘qituvchilarning yetishmovchiligi,

Chet tilini samarali o‘qitish uchun zamonaviy metodikalardan xabardor, innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oladigan pedagoglar talab etiladi. Lekin O‘zbekistonda bu borada malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatiladi. O‘quvchilarning motivatsiyasi pastligi ham ko‘p bora kuzatildi.

Ko‘plab o‘quvchilar chet tilini o‘rganishda ishtiyoq bilan harakat qilmaydi. Buning asosiy sabablari – o‘qitish uslubining zerikarli ekanligi, til o‘rganishning amaliy foydasini anglamaslik va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanmaganligidir.

Bundan tashqari ayrim o‘qituchilarning ham o‘z ustida ishlamasligi ham kuzatilyabdi. lekin ani vaqtida internet,mobil aloqalar juda ham rivojlanib ketdi va biz internetlar orqali turli xil metodlar va darsni yanada yaxshiroq takomillashtirish va bundan tashqari yangi mavzularni mashqlarning ichida yokida turli xil o‘yinlar orqali oldingi metodlarga qaraganda osonroq tushuntirsak bo’ladi.

Muammolarni bartaraf qilish yo‘llari o‘rganib chiqqan holda , bir nechta metodlarni ko‘rib chiqamiz;

Innovatsion ta’lim metodlarini joriy etish, zamonaviy til o‘qitish metodlaridan foydalangan holda darslarni qiziqarli va samarali qilish mumkin. Masalan, kommunikativ yondashuv (Kommunikativer Ansatz), Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish (Inhalts- und Sprachintegriertes Lernen), Jismoniy harakatlar orqali o‘qitish Ganzheitliche körperliche Reaktion)

kabi metodlar chet tilini tabiiy yo‘l bilan o‘rganishga yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlarni oshirish;

Til – bu amaliy fan. Shuning uchun dars jarayonida suhbat, rostdan ham ishlataladigan til vaziyatlari, rolli o‘yinlar, muhokamalar kabi interaktiv usullarga ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Har bir yangi mavzu o’tkanimizda,bola uni amalda qo’llay olishini va tushunganini bilishimiz uchun biz (Anwendung Phase) da turli hil o’sha mavzuga oid uxbatlar yoki Arbeitsalltag qilib yoritib berishi ham mumkin.

Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;

O‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish til o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, Duolingo, Memrise, Quizlet kabi mobil ilovalar, TED Talks va YouTube’dagi ta’limiy videolar orqali mustaqil o‘rganish imkoniyatini yaratish mumkin. Misol tariqasida ayta olamanki, hozirgi paytda O’zbekistonda “Ibrat farzandlari” platformasi juda ham zo’r ishlangan. Siz nafaqat yangi mavzuni o‘rganasiz,balkim oxirida o’sha mavzu yuzasidan test yechishlari ham mumkin. Bundan tashqari darsning boshlanishida o’tkan mavzuyiz yuzasidan turli xil saytlar orqali savol javob o’yni qilishingiz mumkin. Bolalar boshidan diqqatini qaratadi va faol qatnashishni boshlaydi.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish:

Til o‘qituvchilari uchun doimiy ravishda seminar-treninglar, xalqaro konferensiylar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhimdir. Bu ularga eng yangi ta’lim usullarini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun o‘quvchilarga xalqaro sertifikatlar olish imkoniyatini yaratish, til amaliyotlarini tashkil qilish, chet ellik mutaxassislar bilan suhbatlar o‘tkazish muhimdir. Bundan tashqari, kinofilmlar, musiqalar va qiziqarli o‘yinlardan foydalanish ham samarali bo‘lishi mumkin.

Men so’ngida xulosa qilib shuni aytaolamanki, har bir chet tili o‘qituvchilari yangilanib borayotgan metodlarni o’rganshi zarur va “GUM” Metodi emas “SOS” metodidan foydalanishimiz kerak, sababi bolalar yangi o’rgangan mavzularni amalda qo’llay olishlari kerak. Uzbekistn ham tobora rivojlanib chet el bilan shartnomalari ko‘payib boryabdi va biz ham bolalarning kelajagi uchun chet tillarini to’garaklarsiz turli ta’lim muassasalarida o‘rganib chiqib ketish tarafdriman va buning uchun biz ham harkat qilishimiz zarur. O’zbekistonda chet tillarni o‘qitish tizimini isloh qilish uchun innovatsion metodlarni joriy etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish lozim.

---

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish to'g'risida"gi farmoni (2022 yil).
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Macmillan.
4. OECD (2021). Education at a Glance 2021: OECD Indicators. OECD Publishing.
5. UNESCO (2020). Education for Sustainable Development: A Roadmap. UNESCO Publishing.

